

# **PEDAGOGIKA**

**1/2015**

*ilmiy-nazariy va metodik jurnal*



## **Muassis:**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.*

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Jurnalda pedagogika, psixologiya, o’qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o’zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma”si olingan va unga O’zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-qarori bilan ro’yxatga olingan.

Jurnal oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilari, ilmiy xodimlar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tinglovchilari, magistrantlar, talabalariga mo’ljallangan.

## **Tahrir hay’ati:**

**SHARIPOV Shavkat** (*bosh muharrir*)

*Abdullayeva Barno*

*Adilov Po’lat*

*Adilova Saodat*

*Ashirboyev Samixon* (*bosh muharrirning birinchi o’rinbosari*)

*Begimqulov Uzoqboy*

*Beshimov Ro’zinazar*

*Boymetov Botir*

*Egamberdiyeva Nodira*

*Ergashev Dilshod*

*Ergashov Muhammadrasul*

*Fayzullayev Saidnosir*

*Fuzailova Gavhar*

*Ismoilov Omilxon*

*Isganov Ravil*

*Jalolov Jamol*

*Komilova Nodira*

*Mamadazimov Mamadmusa*

*Matenova Yuliya*

*Mirqosimova Marg’uba*

*Mirxoliqov Zikrilla* (*mas’ul kotib*)

*Muslimov Nazrulla*

*Nurmuhammedova Laylo*

*Qahhorova Matluba*

*Qodirova Fotima*

*Safayev Nuriddin*

*Taxirov Jozil* (*bosh muharrir o’rinbosari*)

*Tolipova Jamila*

*Valiyeva Sirojiya*

*Xalilov Faxriddin*

*Xodjayev Begzod*

*Yuzlikayev Farid*

*Zufarov Sherzod*

## KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARINING KOGNITIV USLUBINI TASHXIS QILISH

*Badritdinova M. (NamDU)*

### Abstract

The article considers the problems of individual, general and cognitive activities of the students. The actuality of the learning psychological dynamics development of students from local conditions are mentioned.

### Резюме

В статье рассматриваются вопросы развития индивидуальной и когнитивной деятельности учащихся, его общего интеллекта. Обоснована актуальность изучения психологической динамики развития учащихся с учётом местных условий.

**Tayanch tushunchalar:** *kognitiv, intellekt, diagnostika, reprezentativlik, korrelyatsion bog'lanish, validlik, analogiya, kognitiv dinamiklik, differentsiatsiya, identifikatsiya, sintezlash, qiyoslash, intellekt koeffitsiyenti, simmetriya.*

Milliy istiqloq tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Har bir shaxs o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlar yig'indisidan iborat. Shaxsning individual uslubi boshqalar bilan o'zaro munosabatida, turli faoliyat jarayonlarida namoyon bo'ladi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, o'smirlar va o'spirinlarning asosiy faoliyati sifatida kognitiv uslubga xos individuallikni shakllanishida yetakchi o'rin egallaydi.

“Kognitiv uslub” tushunchasi psixologik adabiyotlarga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, so'zi tarjima qilinganda “bilish uslubi” degan ma'noni anglatadi. Biroq “bilish” va “kognitiv” tushunchalari sinonim emas. “Bilish” – obyektiv voqelikni ongda aks ettirish jarayoniga tegishli bo'lib, u sensor, perseptiv, mnemik, fikrlash shaklidagi bilish obrazlaridir. “Kognitiv” tushunchasi turli darajadagi bilish obrazlarining shakllanishida ishtirok etadigan axborotlarni qayta ishlashning psixologik mexanizmiga taalluqlidir. Oddiy qilib aytganda, borliqni o'rganishning o'ziga xos individual uslubidir<sup>1</sup>. Ta'lim jarayonida

<sup>1</sup>Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 264.



o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan bir xil ta'lim-tarbiya beriladi. Lekin o'quvchilarning o'zlashtirishlari va o'quv faoliyatini qabul qilishlari har xil.

Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishdagi o'ziga xoslik, kognitiv uslubning namoyon bo'lishi, ularni diagnostika qilish, o'quvchilarning kognitiv uslubini to'g'ri boshqarish va rivojlantirish muammolari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalarimiz asarlarida turli jihatlari o'rganilgan. Jumladan, Forobiy asarlarida hissiy bilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlar va aqliy bilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga ham alohida-alohida tavsif beriladi. Ibn Sino esa xayol va fikrlashni ijodiy bilishning har xil shakllari deb biladi. Beruniy sezgilar va aqliy bilish, o'zini tuta bilish, xotira, tasavvur, diqqat, his va idrok, tuyg'u, qobiliyat, malaka kabi shaxsiy xislatlarni olamni bilish jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rsatgan<sup>1</sup>.

O'quvchilarning kognitiv uslubi va intellekti o'rtasidagi munosabat o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Ularning izlanishlari uzluksiz ta'lim bosqichlarida bu masalaning yoritilishiga e'tibor qaratilgan<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz psixologlaridan M.G. Davletshin va B. Botirov tadqiqotlarida qadriyatlarga oid mental makon murakkabligini Xemfri mezoni bo'yicha baholab o'rganilgan bo'lib, B. Botirov rus va o'zbek respondentlari kognitiv makonlarining murakkablik darajalarini o'rgangan. Shunday qilib, kognitiv uslub tushunchasi shaxs psixologiyasi va bilish psixologiyasining chegarasida shakllangan. Uslub so'zining qo'shilishi bilan u o'ziga xos tusga ega bo'lgan. Shaxs psixologiyasida uslubni individuallik namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida ta'riflansa, bilish psixologiyasida esa intellektual faoliyatning rasmiy tabiatga ega ekanligini ta'kidlagan holda, uning psixik taraqqiyotining past yoki yuqori darajasiga aloqador emasligi e'tirof etiladi.

Ta'lim jarayonida kognitiv uslubning namoyon bo'lishi ilmiy nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uni boshqarish va rivojlantirish muammolari ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun tadqiqot mavzusi sifatida ta'lim jarayonida namoyon bo'ladigan kognitiv uslublarni o'rganish bilan bog'liq muammo tanlandi.

<sup>1</sup>Абу Райхон Беруний. Феруза (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоятлар). – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1993. – Б. 96.

<sup>2</sup>Шоумаров Г.Б. Дифференциальная психологическая диагностика задержки психологического развития на основе анализа стандартизированной методики: дисс. ... канд. психол. наук. – Москва, 1980. – С. 140.



Mazkur tadqiqot ishida o'zbek olimlari foydalangan metodikalarning ayrimlariga tayanish bilan bir qatorda, boshqa metodikalar hamda intellektning bir qator turlarini tadqiq etishga ham harakat qilindi. Tadqiqot maqsadiga ko'ra, diagnostik vositalarni talab etuvchi metodikalar psixologik amaliyot va mahalliy sharoitda qo'llanilganligi hisobga olindi. Ularni tatbiq etishdan olinadigan natijalar reprezentativlikka ega, validlik va ishonchlilik darajalari ta'minlangan, ko'rsatkichlarni tahlil etishga xizmat qiluvchi statistik o'lchamlar asos bo'ladi.

Tadqiqotda kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasbiy shakllanishi jarayonida umumiy intellektning diagnostikasiga e'tibor qaratildi. O'quvchilarning umumiy intellektini tahlil etishda topshiriqlar tuzilish tamoyillarining xarakterli holatlari inobatga olinadi. Chunki, o'quvchilarning umumiy intellektini ta'lim yo'nalishlarida differensial (jinsiy) tafovutlari bo'yicha taqqoslash ko'zda tutildi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining umumiy intellektini o'rganish uchun Dj. Ravenning "Progressiv matritsalar" testi tanlandi va uning topshiriqlar to'plamidan foydalanildi. Metodikaning har bir seriyasidagi topshiriqlar shaxs, xususan, talabalar intellektining o'ziga xos tabiiy imkoniyatlarini o'lchashga yordam berishi ko'zda tutildi. Dj. Raven metodikasida intellekt darajalarini izohlashga xizmat qiluvchi bir qancha topshiriqlar seriyasi (guruhi) berilgan bo'lib, "A" seriyani bajarishdagi vazifalar matritsada yetishmayotgan elementlarni berilgan variantlar orasidan topib, to'ldirishdan iborat. "A" seriyaga kiruvchi vazifalarni yechishda, asosan, quyidagi ikkita tafakkur jarayoni ishtirok etadi:

1) berilgan matritsa (namuna)ning tuzilishini tahlil qilish va elementlarni tabaqalashtirish asosida uning qismlari orasidagi bog'lanishlarni anglash;

2) asosiy shaklda yetishmayotgan elementni identifikatsiya qilish, uning barcha tomonlarini berilgan elementlar (javob variantlari) bilan taqqoslash.

"A" seriyada vazifani bajarishning samaradorligi diqqatning samaradorligi, tasavvur va berilgan obyektlar orasidagi farq va o'xshashliklarni topa olishga bog'liq.

"B" seriyani bajarishdagi asosiy vazifa ikkita juft shakllar orasidagi o'xshashlikni (analogiyani) topishdan iborat. Tekshiriluvchi berilgan shakllar orasidagi mavjud o'zgarishlarni asta-sekinlik bilan anglashi, shakllar orasidagi simmetriyani ko'ra olishi orqali vazifani yechadi. Bu seriyada shaxsning to'g'ri chiziqli differentsiatsiya va to'g'ri chiziqli bog'lanishlar asosida xulosa chiqara olish qobiliyati namoyon bo'ladi.

"S" seriya vazifalari matritsadagi shakllarning ma'lum mantiqiy prinsipda

murakkablashib borishiga asoslangan. Shakllarning joyi o'zgarishi bilan ular "boyib", "to'lib" boradi. "To'lib" borishlar gorizontal yo'nalishda ham, vertikal yo'nalishda ham ro'y beradi va eng oxirgi yetishmayotgan elementda barcha o'zgarishlar yuzaga chiqadi (yig'iladi). Bu seriyada dinamikani, o'zgarishlarni kuzatuvchanlik, ro'y berayotgan o'zgarishlarni tez ilg'ab olish qobiliyati, e'tiborlilik (diqqatning samaradorligi), xayol va tasavvurning rivojlanganligi namoyon bo'ladi.

"D" seriya vazifalari matritsadagi shakllarni gorizontal va vertikal yo'nalishlarda qayta qurishga asoslangan. Vazifaning yechimi shu o'zgarishlarni, shakllarning almashinishi ostida yotgan qonuniyatlarni anglashni talab qiladi. Bu seriyada vazifaning yechimi tekshiriluvchi tomonidan shakllarda ro'y berayotgan sifat va miqdor o'zgarishlarini ilg'ab olish, ularni ma'lum tartibga keltirish (qonuniyatni topish) qobiliyatiga bog'liq.

"E" seriya vazifalari matritsaning alohida elementlari orasidagi farqlarni biror prinsip asosida analiz va sintez qilishni talab qiladi. Vazifani yechish uchun shakllarning elementlarini algebraik prinsip bo'yicha qo'shish, ayirish, aralashtirish talab qilinadi. Shunday qilib, etishmayotgan element matritsaning boshqa elementlari ustida bajarilgan turli algebraik operatsiyalar natijasida topiladi. Bu seriyada qatorlarda ro'y berayotgan murakkab sifat va miqdor o'zgarishlarini kuzatish va anglash talab qilinadi. Bu seriya vazifalarini yechishda abstraksiya va dinamik sintezning oliy shakli namoyon bo'ladi.

Dj. Raven metodikasi bo'yicha o'quvchilarning umumiy intellekt koeffitsiyenti  $IQ = 92,75 \pm 11,73$  ga teng bo'ldi. Bu esa intellektning o'rtacha va o'rtachadan yuqori natijalari orasidagi qiymatlarning aks ettirganligi bilan xarakterlanadi (1-jadval).

1-jadval

	Pedagogika kolleji		Tibbiyot kolleji		Qizlar		Yigitlar		Umumiy IQ	
	M	U	M	U	M	U	M	U	M	U
IQ	95.3 4	11.3 8	90.16	11.61	94.18	10.13	92.70	7.12	92.75	11.73
T	2.13				1.42				* p<0.05	
Izoh: M-o'rtacha arifmetik qiymat, U-dispersiya.										

Pedagogika ( $IQ=95,75 \pm 11,38$ ) va tibbiyot ( $IQ=90,16 \pm 11,61$ ) kolleji o'quvchilarining natijalarini o'zaro taqqoslaganda ham ularning qiymatlari orasidagi ko'rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilmagan bo'lsa-da, ammo

ularning ko'rsatkichlari orasida farq kuzatildi ( $t=2,13$ ,  $p<0.05$ ). Bu esa o'quvchilarning umumiy intellektini izohlashga asos bo'luvchi kognitiv konstrukt (topshiriqlar)ning roli, "A" seriya topshiriqlarini bajarishdagi ustunlik va tafakkurning guruhlash, ya'ni sintezlash va o'zaro qiyoslash jarayonlarini o'zlashtirganliklari yetakchilik qilganligini, ushbu holat esa, o'z navbatida, o'quvchilarda yuklatilgan vazifalarni bajarish va diqqat samaradorligi, tasavvur va o'xshashliklarni aniqlash imkoniyatlari yuqoriligini ko'rsatadi. Mazkur holat, hatto, o'quvchilarning barcha seriya topshiriqlarini bajarish natijalari orasidagi korrelyatsion aloqadorliklari o'rganilganda ham kuzatildi.

Shuningdek, o'quvchilarning intellektidagi analogiyani topish, izchillik va o'zgarishlarni aniqlashga ham moyilliklari kuzatildi. O'z navbatida, ular narsa va hodisalar hamda shakllar orasidagi simmetriyani fahmlash va differentsiatsiyalash layoqatiga egaliklarining ulushi yuqoriligi bilan ajralib turdi. Ular ta'lim jarayonidagi to'g'ri bog'lanishga ega differentsiatsiya va to'g'ri chiziqli bog'lanishlar asosida xulosa chiqara olish qobiliyatiga ega, degan mulohazaga olib kelmoqda.

Sinaluvchilar "S" seriya topshiriqlarini bajarish jarayonida sekin-astalik bilan qiyinchilikka duch kela boshladilar. Chunki, topshiriqlar oldingi seriyanikidan farq qilgan holda, o'quvchilar tafakkurning boshqa qirralariga xos qobiliyatlarga egaliklarini namoyon etishlari lozim edi. Negaki, topshiriqlarni yechishda ularning bir tomonlama yechimini tahlil etishga moyil bo'lib qolganliklari sabab bo'lganligi ehtimoli bor edi. Aslida qiyinchilik topshiriqlarni yechishda gorizontaal yo'nalishda ham, vertikal yo'nalishda ham ro'y beradi va eng oxirgi, yetishmayotgan elementda barcha o'zgarishlar yuzaga chiqishini aniqlash lozim bo'ladi. Bu esa intellektidagi dinamikani, o'zgarishlarga nisbatan kuzatuvchanlik, ro'y berayotgan o'zgarishlarni tez ilg'ab olish qobiliyati, e'tiborlilik (diqqatning samaradorligi), xayol va tasavvurning rivojlanganligini namoyon etishi lozim edi. O'quvchilarda bu seriya topshiriqlarining sakkizinchisiga qadar yengillik tug'dirgan bo'lsa, keyingilarida yanglishish va xatoga yo'l qo'yish ortganligi kuzatildi.

O'quvchilar "D" seriya va "E" seriya topshiriqlarini bajarishda ancha muammolarga duch kelishdi, deyishimiz mumkin. Bu seriyalarda topshiriqlar matritsadagi shakllarni gorizontaal va vertikal yo'nalishlarda qayta qurishga asoslangan edi. Vazifaning yechimi shu o'zgarishlarni, shakllarning almashinishi ostida yotgan qonuniyatlarni anglashni talab qilardi. Vazifaning yechimi tekshiriluvchilar tomonidan shakllarda ro'y berayotgan sifat va miqdor o'zgarishlarini ilg'ab olish, ularni ma'lum tartibga keltirish (qonuniyatni topish) qobiliyatiga egaliklarini baholab berar edi. Ammo bu holatda o'quvchilar



tomonidan barcha topshiriqlar bajarilgan bo'lsa-da, ularning to'g'riligi haqiqatdan ancha yiroq bo'lib qoldi.

O'z navbatida, o'quvchilar "E" seriya topshiriqlarini bajarishda ham uning matritsaning alohida elementlari orasidagi farqlarni biror prinsip asosida analiz va sintez qilishi talab etilishini fahmlay olmagan. Zero, topshiriqlarni yechish uchun shakllarning elementlarini arifmetika tamoyillari bo'yicha qo'shish, ayirish, aralashtirishga erishishlari talab etilardi. Shunday qilib, yetishmayotgan element matritsaning boshqa elementlari ustida bajarilgan turli algebraik operatsiyalar natijasida topiladi. O'quvchilarga bu topshiriqlar ham birmuncha murakkabdek tuyuldi va topshiriqlarni to'g'ri bajarish samaradorligiga erishilmadi. Topshiriqlarni bajarishda murakkab sifat va miqdor o'zgarishlarni kuzatish va anglash o'quvchilardan yuqori zehn va fahmni taqozo etar ekan. Bu seriya vazifalarini yechishda abstraksiya va dinamik sintezning oliy shakli namoyon bo'lmadi. Hatto natijalarni bajarishdagi ichki aloqadorlik masalalari K. Pirsonning korrelyatsion tahlil usuli asosida qayta ishlangandan olingan ko'rsatkichlarda ham o'z isbotini topdi (2-jadval).

2-jadval

Seriyalar	O'zaro aloqadorlikni topish	Analogiya	Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash	Klassifikatsiyalash va guruhlash	Tarkibiy elementlarga ajratish
O'zaro aloqadorlikni topish	1	0,352**	0,285*	0,138	0,124
Analogiya		1	0,572**	0,177	0,231
Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash			1	0,22	0,202
Klassifikatsiyalash va guruhlash				1	0,240
Tarkibiy elementlarga ajratish					1
* p<0,05; **p<0,01					

O'quvchilarning umumiy natijalarida "A" seriya topshiriqlarini yechish samaradorligi "B" seriyaning ( $r=0,352$ ,  $p<0,01$ ) bajarilish muvaffaqiyatlariga bo'g'liqlik hosil qilgan ekan. O'quvchilarning kognitiv faoliyatida tafakkur operatsiyalaridagi umumlashtirish, taqqoslash, narsa va hodisalardagi o'xshashlik va farqlarni topish, masalani yechishga diqqatni yo'naltira olish qobiliyati, o'z navbatida, analogiyaga asoslangan topshiriqlarni anglashi, kerakli tomonlarini differentsiatsiyalash va to'g'ri chiziqli bog'lanishlar asosida xulosa chiqara olish qobiliyatini namoyon etishlariga imkon berishini ko'rsatmoqda.

O'quvchilardagi bunday psixik imkoniyatlar ularda kognitiv dinamiklikni, o'zgarishlarga nisbatan kuzatuvchanlik, ro'y berayotgan o'zgarishlarni tez ilg'ab olish qobiliyati, e'tiborlilik (diqqatning samaradorligi), xayol va tasavvurning rivojlanishiga olib kelishi mumkinligini ham ifodaladi ( $r=0.285$ ,  $p<0.05$ ).

O'quvchilarning analogiyani topishga qobiliyatli ekanliklari voqea-hodisalarni tahlil etishda dinamiklikni, ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan kuzatuvchanligi va o'zgarishlarni tez ilg'ash qobiliyati, e'tibori, xayol va tasavvurlari rivojlanishiga olib keladi ( $r=0.572$ ;  $p<0.01$ ).

Tadqiqotda seriyalar o'rtasidagi boshqa aloqadorlik kuzatilmadi. Bu esa umumiy intellektning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlaridan foydalanish, tafakkur taraqqiyotiga qaratilgan pedagogik-psixologik chora-tadbirlarni tashkil etish, o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini o'stirishda pedagogik texnologiyaning samarali usullariga muttasil ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda o'quvchilar intellektidagi o'ziga xoslikni baholashga xizmat qilayotgan mezonlar ta'lim yo'nalishlariga ko'ra ham tahlil etildi.

O'quvchilarning ta'lim yo'nalishlari, ya'ni ularni o'qitish muhitidagi fanlarning ta'siri ham bor bo'lishini ehtimol qilgan holda, ularning umumiy intellektiga xos jihatlarning diagnostikasi bo'yicha olingan natijalarni tahlil etish lozim deb topildi. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilarning qaysi yo'nalishda tahsil olishi shaxsning kognitiv faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi ham mumkin. Natijalar tahliliga murojaat etaylik. Pedagogika kolleji o'quvchilarida umumiy intellektni baholash metodikasi topshiriq ko'rsatkichlaridagi bo'g'liqlik quyidagi tarzda o'z aksini topa olgan, deyishimiz mumkin<sup>1</sup>.

Pedagogika kolleji o'quvchilari intellektida muammoni tahlil qilish, ularning tarkibiga kiruvchi elementlarni guruhlash, o'xshashliklarni topa olish,

<sup>1</sup>Badritdinova M.B. Ta'lim jarayonida kognitiv uslub shakllanishining psixologik xususiyatlari (Magistrlik dissertatsiyasi). – Namangan, 2013. – B. 70.

bir-biriga bog‘liq tomonlarini taqqoslay olishlari hamda analogik xarakterdagi masalalarni anglashga ( $r=0.529$ ,  $p<0.01$ ), o‘zgarishlarni fahmlashga ( $r=0.392$ ,  $p<0.05$ ) qobiliyatli ekanliklari kuzatildi. Umumiy intellektning barcha ko‘rsatkichlari singari o‘quvchilarning ta‘lim yo‘nalishlarida ham analogiya tamoyillariga asoslangan topshiriqlarni yechishga layoqatlilik ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni anglashga ( $r=0.503$ ,  $p<0.01$ ), muammolarni qayta tasniflash va guruhlashga qobiliyatli ekanliklarini ( $r=0.504$ ,  $p<0.01$ ) bildirdi (3-jadval).

3-jadval

Topshiriq tiplari	O‘zaro aloqadorlikni topish	Analogiya	Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni anglash	Klassifikatsiyalash va guruhlash	Tarkibiy elementlarga ajratish
O‘zaro aloqadorlikni topish	1	0,529**	0,392*	0,192	0,165
Analogiya		1	0,503**	0,504**	0,246
Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni anglash			1	-0,049	0,265
Klassifikatsiyalash va guruhlash				1	0,575**
Tarkibiy elementlarga ajratish					1
* $p<0.05$ ; ** $p<0.01$					

Pedagogika kolleji o‘quvchilarida tafakkurning klassifikatsiyalash va guruhlash operatsiyalarini o‘zlashtirgan shaxslar intellektida algebraik amallarni bajarishda qiyinchilik tug‘ilmasligiga guvoh bo‘lindi ( $r=0.575$ ,  $p<0.01$ ). Ammo o‘quvchilarning analogik topshiriqlarni bajarishga, kuzatuvchanlik, o‘xshash jihatlarni farqlash tamoyillariga moyillik bilan algebraik topshiriqlarni bajarishga qaratilgan topshiriqlarni yechishda aloqadorlik kuzatilmassligining ham o‘ziga xos psixologik tomonlari bo‘lishi tabiiy. Topshiriqlarning barchasini hal etish talaba intellektida kognitiv jarayonlarning o‘zaro uyg‘unligini, ya‘ni diqqat, kuzatuvchanlik, idrok etish, tafakkur va tushunchalarni qo‘llay olish imkoniyatlarining mujassamlashganligini xarakterlaydi.

Tibbiyot kolleji o‘quvchilarning natijalariga murojaat etilganda, ularda intellektual topshiriqlarni yechishda o‘ziga xoslik kuzatildi. Ularda o‘zaro



aloqadorlikni aniqlash tamoyiliga asoslangan topshiriqlarni bajarish imkoniyatlari analogiya qonuniyatlariga tayanadigan masalalarni hal etishda muammoga duch kelmasliklarini ko'rsatmoqda ( $r=0.460$ ,  $p<0.05$ ). Tibbiyot kolleji o'quvchilari uchun ham kognitiv jarayonlarning umumiy jihatlariga mos tarzda kuzatuvchanlik, narsa va hodisalar orasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratish, o'zaro aloqadorlikni tez payqash, analiz va sintez operatsiyalariga tayanishlarini izohlash o'rindir.

Tibbiyot kolleji o'quvchilari pedagogika kolleji o'quvchilaridan farqli tarzda, intellektga xos topshiriqlarni bajarishda izchillikdan ko'ra, tarqoqlikka moyil ekan. Bu esa har xil topshiriqlarni bajarishdagi o'zaro bog'liqlik izchil borishdan ko'ra, alohida hollar uchun xos bo'lib, qolgan o'zaro aloqadorlikni topish analogiya tamoyiliga asoslangan topshiriqlar bilan bog'lanish hosil qilgan va boshqa vazifalar bilan aloqadorlikni aks ettirmagan. Analogiya tamoyili topshiriqlari esa ro'y berayotgan o'zgarishlarni payqash topshiriqlari bilan o'zaro to'g'ri korrelyatsion bog'lanish hosil qilgan ( $r=0.438$ ,  $p<0.05$ ). Bu esa tibbiyot kolleji o'quvchilarining analogik masalalarni yechishda o'zaro o'zgarish, ro'y berayotgan holatlarni baholashga qobiliyatli ekanliklaridan dalolat beradi (4-jadval).

4-jadval

	O'zaro aloqadorlikni topish	Analogiya	Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash	Klassifikatsiyalash va guruhlash	Tarkibiy elementlarga ajratish
O'zaro aloqadorlikni topish	1	0,460*	0,215	0,291	-0,144
Analogiya		1	0,438*	0,356	0,340
Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash			1	0,391	0,512*
Klassifikatsiyalash va guruhlash				1	0,417
Tarkibiy elementlarga ajratish					1
* $p<0.05$ ;					

Yana bir holat ro'y berayotgan o'zgarishlarga asoslangan topshiriqlarni yechish arifmetik tamoyilli topshiriqlarini yechish bilan o'zaro korrelyatsion ijobiy bog'lanish hosil qilgan ( $r=0.512$ ,  $p<0.05$ ).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatidagi individual hamda kognitiv uslubi va umumiy intellektini aniqlash, uning dinamikasini psixologik jihatdan o'rganish mahalliy sharoit uchun dolzarb muammodir.

2. Individual hamda kognitiv uslub va umumiy intellektni aniqlash tadqiq qilishning psixodiagnostik metodikalari mavjud bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish shaxsning kasbiy-shaxsiy kamoloti yuzasidan yetarlicha ilmiy-uslubiy ma'lumotlar olishga xizmat qiladi.

3. O'quvchilar shaxslararo munosabatlari, intellektual qobiliyatlari birligida ijtimoiy muhit, suhbatdoshlarning xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlarini, kechinmalarini baholash imkoniyatlarining qonuniyat jihatidan bog'liqligi tasdiqlandi.

4. O'quvchilarning ta'lim yo'nalishlari, ya'ni ularni o'qitish muhitidagi fanlarning ta'siri shaxsning kognitiv faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi ham mumkin.

5. O'quvchilarda tafakkurning klassifikatsiyalash va guruhlash operatsiyalarini o'zlashtirgan shaxslar intellektida algebraik amallarni bajarishda qiyinchilik tug'ilmasligiga guvoh bo'lindi. Ammo o'quvchilarning analogik topshiriqlarni bajarishga, kuzatuvchanlik, o'xshash jihatlarni farqlash tamoyillariga moyillik bilan algebraik topshiriqlarni bajarishga qaratilgan topshiriqlarni yechishda aloqadorlik kuzatilmasligining ham o'ziga xos psixologik tomonlari bo'lishi tabiiy.

Topshiriqlarning barchasini hal etish o'quvchi intellektida kognitiv jarayonlarning o'zaro uyg'unligini, ya'ni diqqat, kuzatuvchanlik, idrok etish, tafakkur va tushunchalarni qo'llay olish imkoniyatlarining mujassamlashganligini ifodalaydi.

MUNDARIJA

**BOSH MAQOLA**

**Sharipov Sh., Madirimov M.**  
Universitetning shonli yo'li  
sahifalaridan..... 2

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,  
PEDAGOGIK INNOVATIKA**

**Akramova F.**  
Pedagogik jamoada rahbar va xodim  
o'rtasidagi munosabatning psixologik  
xususiyatlari..... 7

**Mamatqulov S., Nahanboyev Z.**  
Jan Bodriyyar qarashlarida falsafiy va  
pedagogik motivlar..... 13

**Собирова М., Саматов Х.,  
Никитченко Г.**  
Взаимосвязь исторического,  
философского и антропологического  
подходов к системе непрерывного  
образования..... 20

**Mullaboyeva N.**  
Yolg'izlik muammosi xorij psixologlari  
talqinida.....24

**Jumayev A., Jumanova N.**  
Yosh pedagog kadrlar kasbiy  
kompetentligining ayrim masalalari..... 30

**Arslanova M.**  
Imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy  
tajribani shakllantirishning ayrim  
tarbiyaviy-korreksion masalalari..... 34

**Badritdinova M.**  
Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining  
kognitiv uslubini tashxis qilish..... 40

**MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY  
FANLAR TA'LIMI**

**Aliqulova M.**  
Qomusiy olimlar ijodida ekologik  
madaniyat talqini..... 50

**Artikbayeva Z., Saparboyev J.**  
Kimyo mashg'ulotlarida arifmetik  
progressiya formulalaridan foydalanib  
masalalar yechish..... 56

**IJTIMOIIY VA GUMANITAR  
FANLAR TA'LIMI**

**Xodjayev B.**  
Falsafiy-antropologik yondashuv asosida  
o'quvchilarda tarixiy tafakkurni  
rivojlantirish texnologiyasi..... 60

**Mirqosimova M.**  
Ta'lim bosqichlarida Maqsud  
Shayxzodaning poetik olamini  
o'rganish..... 68

**Хамракулова Ш.,  
Холмухамедова М.**  
Пути целеориентирования студентов  
на занятиях русского языка..... 75

**Махматкулов Х., Очилова А.**  
Психолого-методические особенности  
комбинирования языковых и речевых  
единиц..... 80

**Karimova Sh.**  
Ta'lim bosqichlarida g'azal janri tahlilini  
o'rganish..... 87

**KADRLAR MALAKASINI  
OSHIRISH VA QAYTA  
TAYYORLASH**

**Shoymardonov T., Obidov A.,  
Qosimov D.**  
Masofaviy test sinovlari pedagog kadrlar  
kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash  
omili sifatida..... 95

**UNIVERSITETNING TAMAL  
TOSHINI QO'YGANLAR**

**Homidov H., Ashirboyev S.,  
Abduvalitov E.**  
Nozik didli olim..... 105

**Abdullayeva B.**  
Sevimli ustoz..... 107